



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

№4/2

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2024



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 4/2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров  
PhD, доцент И.М.Пардаева  
А.Х.Мингбоев

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

<b>Умар Худайбердиев</b> Камбағаллик даражаси ва уни қисқартириш йўллари	66
<b>Меҳрангиз Олимовна Мамаюнусова</b> Аҳолининг ўсиши, камбағаллик даражаси ва аҳоли камбағал қатламининг ўзгариш тенденциялари	69
<b>ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС</b>	
<b>Nilufar Abdaxatovna Abdukadirova</b> Umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyatida innovatsiyalarni rivojlantirish yondashuvlari	74
<b>Навруз Абдуллаевич Кудратов</b> Пути эффективного развития услуг электронной коммерции (на примере Самаркандской области)	77
<b>Dilrabo Shirinboyevna Mardonova</b> Samarqand viloyatida mehmonxona xizmatlari integral samaradorligi ko‘rsatkichlarini hisoblash	80
<b>Farhod Mahmudovich Tirkashyev</b> Xizmatlar ko‘rsatish sohasida intellektual mulk obyektlarini boshqarish xususiyatlari	86
<b>Lazizjon Sharifovich Kuldoshev</b> Xizmat ko‘rsatish sohasida raqobatbardoshlik salohiyatini baholashga ilmiy yondashuvlar	91
<b>ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Аҳмаджон Таниев</b> Туризмнинг атроф-муҳитга таъсири ва барқарор ривожланиш стратегиялари	97
<b>Umida Ziyadullayevna Raximova</b> Turizm Infratuzilmasining hozirgi holati	105
<b>Gulmira Rabbonovna Tursunova</b> Turistik mahsulot iste’molchisini tasniflash	110
<b>Bekzod Sherzodovich Sharipov</b> Inklyuziv turizm destinatsiyalarini shakllantirishning konseptual, nazariy-metodologik asoslari	116
<b>Ulug‘bek Egamberdiyevich Boynazarov</b> Oilaviy mehmon uylari uchun mahalliy va xalqaro me‘yorlar xususiyatlari	121
<b>Dilyor Zafarovich Hakimov</b> O‘zbekistonda etnografik turizmni rivojlantirish samaradorligini oshirish yo‘llari	124
<b>Зухрали Турсуналиевич Абдулхакимов</b> Туризм индустриясини ривожлантиришда минтақавий назариялар ўрни ва роли	130
<b>Aziza Javaxirovna Mir-Djafarova</b> Mehmonxona xo‘jaligida yashil texnologiyalarni joriy qilishning innovatsion yechimlari	135
<b>КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК</b>	
<b>Азизбек Исомиддин ўғли Асроров</b> Кичик бизнес субъектларини кредитлаш тизимини такомиллаштириш масалалари	139
<b>Pyos Pخomovich Ayubov, Sumbula Kurasheva</b> Iqtisodiy islohotlarning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o‘rni	145

Bekzod Sherzodovich Sharipov – Buxoro Davlat Universiteti tayanch doktoranti

## INKLYUZIV TURIZM DESTINATSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL, NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inklyuziv turizm xizmatlari iste'molchilari segmenti tahlil qilinib, ularning asosiy guruhlari aniqlangan. Inklyuziv turizm destinatsiyalari xususiyatlari o'rganilgani holda, destinatsiya inklyuziv bo'lishi uchun zaruriy xususiyatlar uch darajada tasniflangan, inklyuziv turizm destinatsiyalari faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar va inklyuziv destinatsiyalarni shakllantirishning asosiy tamoyillari aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** destinatsiya, inklyuzivlik, sayohat, turizm sanoati, turizm subyektlari, nogironligi bo'lgan insonlar, talab, to'siqsizlik, universallik, moslashuvchanlik, destinatsiya menejmenti, strategiya, integratsiya.

**Kirish.** Turizm sohasi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri ekanligi, budjetni shakllantiruvchi potensialining nihoyatda yuqoriligi, hududlar raqobatbardoshligini yuzaga keltirishda tutadigan alohida ahamiyati xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini rag'batlantirish va samaradorligini oshirish jarayonida intensiv o'zgarishlarni izchillik bilan amalga oshirish qobiliyatini yuzaga keltirib, turizm mahsulotlari iste'molchilariga taklif tizimining eng maqbul tuzilmalari vositasida qulaylik hamda xavfsizlik kafolatlari asosida shakllantirilgan yuqori darajadagi xizmatlarni taqdim etishni maqsad qiladi. Gap shundaki, zamonaviy transformatsion o'zgarishlar vaqt o'tishi ta'sirida turizm xizmatlar iste'molchilari ongida o'zgarishlar yuzaga kelishi bilan uyg'unlikda amalga oshib, talabning taklif shakllantiruvchi tomonga yo'llagan yangidan-yangi "chaqiruv"larini dolzarblashib borishiga, mezonlar ko'laminin tinimsiz kengaytirilishiga olib keldi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** D.Harrison [3], C.Gibson [2], T.Jamal, B.Camargo [4], R.Scheyvens, R.Biddulph singari olimlar fikricha, turizm o'rta va yuqori sinf vakillariga sayohat qilish va dam olish faoliyatlaridan bahramand bo'lishning keng imkoniyatlarini taqdim etib, ayniqsa yirik kompaniyalar uchun foydali sanaladi va boy qatlamga ekskluziv imkoniyatlar yaratadi, shu bilan bir qatorda turizm bilan bog'liq xizmat turlaridan foydalanish imkoniyatlari ayrim toifadagi insonlar uchun mutlaqo mavjud emas.

90-yillardan e'tiboran ijtimoiy fanlar tadqiqotchi olimlari jumladan, S.Britton [1], C.Gibson [2], R.Scheyvens [7] barcha xizmatlarni o'z ichiga oluvchi all-inclusive turizm xizmatlari shakllantirilgan hududlarni tanqidiy asosda ko'rib chiqib, mahalliy aholi vakillari uchun "yopiq hududlar" shakllanishini bosh muammolardan biri sifatida qayd etgan bo'lib, ularning fikricha, mahalliy tadbirkorlar uchun turistlarga tovar yoki xizmatlarni sotish orqali foyda olish imkoniyatlari cheklangan va turistlar sarflagan mablag'larning katta qismi xorijiy mehmonxona tarmoqlari va sayohat agentliklari sababli mezbon mamlakatlardan tashqariga oqib chiqishi kuzatilmoqda.

V.Ivanov, S.Tulisov va V.Rafikovalar [9] inklyuziv turizm rivojlanishini tahlil qilib, ushbu turizm turining turli shakllarini hamda nogironligi bor insonlar uchun imkoniyatlarini ko'rib chiqqan, shuningdek, inklyuziv turizmga oid davlat siyosatini amalga oshirish, sohani davlat hamda hududiy miqyosda rivojlantirishni rejalashtirish masalalarini aniqlashtirgan. Ularning yondashuviga asosan, imkoniyati cheklangan insonlar uchun turizm nafaqat dam olish va reabilitatsiya vositasi, balki to'laqonli muloqot hamda nomukammallikni bartaraf etishning manbasi ham sanaladi.

Mahalliy tadqiqotchilardan Sh.Azimova fikriga ko'ra [8] ko'ra, inklyuziv turizm tushunchasi qulaylik chegaralaridan ko'ra kengroq mohiyatni anglatib, inklyuzivlikning yanada teranroq ma'noda tushunilishini nazarda tutadi. Unda ijtimoiy adolatning muhimligi, inson huquqlari, turizm mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste'mol qilishda teng ishtirok singari jihatlar, shuningdek, inklyuziv rivojlanishning muhim tamoyillari sanalgan turizm sohasining adolatli hamda barqaror bo'lishi e'tibor markazida bo'lishi lozim.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot ishida inklyuziv turizm destinatsiyalari tushunchasining nazariy asoslari tahlil qilinib, guruhlangan. Destinatsiya inklyuziv bo'lishi uchun zaruriy xususiyatlar uch darajada tasniflanib, inklyuziv turizm destinatsiyalari faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar analiz qilingan va inklyuziv destinatsiyalarni shakllantirishning asosiy tamoyillari

aniqlashtirilgan. Shuningdek, so‘nggi o‘n yillikda mazkur mavzuga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarining xronologik, metodologik va nazariy yondashuvlar qiyosiy tahlili amalga oshirilgan.

**Tahlil va natijalar.** Inklyuziya yangi hodisalar sirasiga kirmaydi va XX asrning boshlarida maktab ta‘limida ajratishlarsiz barcha uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirish mazmunida ilgari surilgan g‘oyalardan sanaladi. “Inklyuziv” so‘zi inglizcha “inclusive” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, o‘zbek tiliga tarjima qilinganda “shu jumladan” yoki “birlashtiruvchi” degan ma‘noni anglatib, yoshi, jinsi, etnik kelib chiqishi, jismoniy yoki intellektual qobiliyatlari, ijtimoiy mavqei va boshqa shu singari jihatlardan qat‘i nazar, barcha insonlarning ishtirokini o‘z ichiga qamrab olishga qaratilgan tushuncha yoki yondashuvni ifodalash uchun ishlatiladi [10]. Turizmning ijtimoiy fan tarmoqlarida eng uzoq davom etgan, turli ilmiy bahs-munozaralarga asosiy sababchi bo‘lgan omillaridan biri uning asosan ayrim guruhlar uchungina mavjudligi [6] bilan bog‘liq masalalariga borib taqaladi. Ta‘lim, jamiyatshunoslik, hamda servisga oid fanlarda, xususan, turizmda “**inklyuziv**” atamasi keng qo‘llaniladigan tushunchalardan hisoblanib, uning mazmun-mohiyati ayniqsa, so‘nggi o‘ttiz yilda juda tez va bashorat qilish imkonsiz bo‘lgan shakllarda o‘zgarib bordi.

Inklyuziv turizmni tahliliy konsepsiya va intilish ideali [6] sifatida izohlagan R.Scheyvens hamda R.Biddulph tomonidan taklif etilgan konsepsiyaning 7 elementi quyidagilardan tarkib topadi:

1. Inklyuziv turizmni rivojlantirishning birinchi elementi turizmda turli guruhdagi insonlar, xususan nogironligi bo‘lgan shaxslar qanday qilib ishlab chiqaruvchilar – “turizm subyektlari, tadbirkorlar, xodimlar va regulyatorlar” sifatida ishtirok etishi mumkinligini ko‘rib chiqadi. Regulyator – bu ma‘lum bir tizim yoki sohada qoidalar va normativlarni belgilovchi va nazorat qiluvchi shaxs yoki tashkilotdir. Regulyatorlar, odatda, biron bir sohaga tegishli qonunlarni, me‘yorlarni va standartlarni yaratadi hamda ularni amalga oshirilishini ta‘minlash uchun nazoratni amalga oshiradi. Masalan, turizm sohasida regulyatorlar turistik faoliyatlarni tartibga solish, xavfsizlik va sifat standartlarini o‘rnatish bilan shug‘ullanadi.

2. Inklyuziv turizmni rivojlantirishning ikkinchi elementi insonlarning turli guruhlariga kiruvchilar – ayni holatda nogironligi bor shaxslar iste‘molchi sifatida turizm qanday ishtirok etishi mumkinligi borasidagi masalalarni ko‘rib chiqishni nazarda tutadi.

3. Inklyuziv turizmni rivojlantirishning uchinchi elementi marginal(cheklangan, jamiyatdan chetda qolgan) insonlar – ayni holatda nogironligi bor shaxslarni munosib va mazmunli tarzda qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi.

4. Inklyuziv turizmni rivojlantirishning to‘rtinchi elementi ilgari marginal toifaga kirgan, ya‘ni nogironligi bo‘lgan shaxslarning boshqaruvni amalga oshirishlarini ko‘rib chiqadi, bu esa turizm va undan tashqarida boshqaruv(kuch) munosabatlarini o‘zgartirishga sabab bo‘ladi.

5. Inklyuziv turizmni rivojlantirishning beshinchi elementi marginal guruh vakillarining turizm qaror qabul qilishda ishtirok etishlari kengaytirishini o‘z ichiga qamrab oladi.

6. Inklyuziv turizmni rivojlantirishning oltinchi elementi turizmni qayta tasavvur qilish(anglash) haqida bo‘lib, yangi tajriba maydonlari hamda o‘zaro aloqalarni o‘rnatish uchun nuqtalar(destinatsiyalar) yaratishni nazarda tutadi.

7. Inklyuziv turizmni rivojlantirishning yettinchi elementi salbiy stereotiplardan xalos bo‘lish va insonlar o‘rtasidagi turli to‘siqlarni bartaraf etish orqali o‘zaro anglash hamda hurmatni targ‘ib qilishni anglatadi. Turizmni munosib tarzda targ‘ib qilishda nogironlikka oid tushunchalarning yetarli darajada emasligi va jamiyat orasida tushunmovchiliklarning mavjudligi murakkab masala bo‘lib, uning salbiy oqibatlarini yumshatish va yo‘qotish masalalariga alohida urg‘u berilishi lozim.

Destinatsiya darajasida sifatli, qulay turizmni taqdim etish sanoatning tarqoq tabiati, turizm tarmoqlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning yetarli emasligi sababli ham murakkab, ham mushkul hisoblanadi<sup>1</sup>. Tadqiqotlar natijasida inklyuziv turizm xizmatlari iste‘molchilari segmentini tahlil qilib 24 ta asosiy guruhlarini aniqladik. Natijalar 1-rasmda keltirilgan.

Gap shundaki, inklyuziv turizm barcha turizm iste‘molchilarini nazarda tutgani bois, uning chegaralangan segment guruhlarini mavjud emas. Biroq, ushbu turizm turida asosiy e‘tibor

<sup>1</sup> Nyanjom, J.; Boxall, K.; Slaven, J. Towards inclusive tourism? Stakeholder collaboration in the development of accessible tourism. *Tour. Geogr.* 2018, 20, 675–697.



**1-rasm. Inklyuziv turizm iste'molchilari segmentining asosiy guruhlar<sup>1</sup>**

turizm xizmatlaridan ma'lum bir sabablar, xoh u tabiiy, xoh sun'iy shakllangan omillar tufayli bo'lsin foydalana olmayotgan iste'molchilar guruhlariga qaralib, aynan ularning talablarini qondirish imkoniyatlarini shakllantirish ustuvor vazifa sanaladi.

Adabiyotlar tahlili natijasida inklyuziv turizm destinatsiyalari(ITD) xususiyatlari aniqlashtirib 2-rasm shakllantirildi. Bizning fikrimizcha, destinatsiya inklyuziv bo'lishi uchun quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim va ularni uch darajada tasniflaymiz:

1.Birinchi darajali asosiy xususiyatlar: xavfsizlik; qulaylik; to'siqsizlik; universallik; moslashuvchanlik; mehmondo'stlik.

2.Ikkinchi darajali asosiy xususiyatlar: raqobatbardoshlik; ijtimoiy tenglik; diskriminatsiyaga toqatsizlik; ijtimoiy g'amxo'rlik; rehabilitatsion; jozibadorlik; barqarorlik; adolatlilik; innovatsionlik.


3.Uchinchi darajali asosiy xususiyatlar: kreativlik; tadbirkorlik; rekreatsion; taklif shakllantiruvchanlik; intiluvchanlik; unikallik; tizimlilik; o'zlashtiruvchanlik.

Xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqot ishlarini o'rganish natijasida ITD lari faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni quyidagi 8 ta guruhga bo'linishini aniqladik: 1)siyosiy; 2)iqtsodiy; 3) ijtimoiy; 4) ekologik; 5)tabiiy; 6) texnologik; 7)qonunchilik; 8) madaniy.

Yuqoridagilarga asoslangan holda, inklyuziv destinatsiyalarini shakllantirishning asosiy tamoyillarini aniqladik va bizning fikrimizcha, ular quyidagilardan tarkib topgan:

1.Manfaatlar umumiyliigi tamoyili; 2. Intensivlik tamoyili 3. Gender tengligi tamoyili; 4. Universal dizayn tamoyili; 5. Moslashuvchanlik tamoyili; 6. Mehmondo'stlik tamoyili; 7. To'siq-

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi



**2-rasm. Inklyuziv turizm destinatsiyasi xususiyatlari<sup>1</sup>**

sizlik tamoyili; 8. Ijtimoiy tenglik va adolat tamoyili. 9. Tizimlilik tamoyili; 10. Ijtimoiy mas’uliyat tamoyili.

Tadqiqotlar natijasida ma’lum bo’ldiki, shu vaqtga qadar destinatsiyalarning turli ta’riflari bir qator olimlar tomonidan keltirilib, izohlangan bo’lsada, aynan “inklyuziv destinatsiya” tushunchasining mohiyatini aniqlashtirish borasidagi izlanishlar salmoqli emas hamda mavjud ta’riflar zamonaviy turizm talab hamda taklif tizimlari imkoniyatlari doirasida to’liq ochib berilmagan. Shundan kelib chiqib, inklyuziv turizm tushunchasiga ilmiy ta’rif berish zarurati mavjud deb hisoblaymiz va bizning fikrimizcha **inklyuziv turizm destinatsiyasi** – bu geografik

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

jihadan ma’lum chegaralarga ega bo’lgan, barcha turistik guruhlarining turizm bilan bog’liq maxsus yoki individual ehtiyojlarini qondirishga mo’ljallangan, o’zaro majmuaviy ko’rinishga ega kompleks xizmatlar uyg’unligini o’zida mujassamlashtirgan hamda, tabiiy shakllangan va sun’iy ravishda shakllantirilgan tashrif buyuruvchilarni o’ziga jalb qila olish xususiyatlarining jozibadorlik omillariga ega bo’lgan hudud.

**Xulosa va takliflar.** Inklyuziv turizm destinatsiyalarini shakllantirishning konseptual, nazariy-metodologik asoslarini o’rganish natijasida quyidagi ilmiy natijalarga erishdik va xulosalarga keldik:

1. Ta’lim, jamiyatshunoslik, hamda servisga oid fanlarda, xususan, turizmda “inklyuziv” atamasi keng qo’llaniladigan tushunchalardan hisoblanib, uning mazmun-mohiyati ayniqsa, so’nggi o’ttiz yilda juda tez va bashorat qilish imkonsiz bo’lgan shakllarda o’zgarib bordi.

2. Destinatsiya darajasida sifatli, qulay turizmni taqdim etish sanoatning tarqoq tabiati, turizm tarmoqlari o’rtasidagi o’zaro hamkorlikning yetarli emasligi sababli ham murakkab, ham mushkul hisoblanib, tadqiqotlar natijasida inklyuziv turizm xizmatlari iste’molchilari segmentini tahlil qilib 24 ta asosiy guruhlarini aniqladik.

Shunday qilib, inklyuziv turizm iste’molchilari asosiy segmentlari quyidagilarni o’z ichiga oladi: nogironligi bo’lgan shaxslar; yosh bolali oilalar; homiladorlar; keksa yoshdagi insonlar; vaqtinchalik jismoniy imkoniyati cheklangan insonlar; og’ir yukga ega turistlar; til bilishda muammoga ega turistlar; ruhiy xastalikdan aziyat chekuvchi insonlar; ayollar va qizlar; jismoniy farqliligi bor insonlar; allergik xastaliklardan aziyat chekuvchilar; o’smirlar va bolalar; gender muammolaridan aziyat chekuvchilar; chegarasiz sayohat istaklari mavjud sayohatchilar; ijtimoiy muhtoj qatlam vakillari; atrof-muhit muhofazasi faol guruhlari; arzon va hamyonbop xizmatlarni izlovchilar; ekstremal tajriba izlovchilar; lyuks va qimmat xizmatlarni izlovchilar; cheklangan va qisqa muddatga sayohatni amalga oshiruvchilar; smart xizmatlarni afzal ko’ruvchilar; maxsus ruxsatnomalar asosida sayohat qiluvchi insonlar; gastronomik talablari turlicha insonlar; o’z ehtiyojlariga ko’ra alohida sayohat rejalarini tuzuvchilar.

3. Adabiyotlar tahlili natijasida inklyuziv turizm destinatsiyalari xususiyatlarini aniqlashtirdik, bizning fikrimizcha, destinatsiya inklyuziv bo’lishi uchun quyidagi xususiyatlarga ega bo’lishi lozim va ularni uch darajada tasniflaymiz:

Birinchi darajali asosiy xususiyatlar: xavfsizlik; qulaylik; to’siqsizlik; universallik; moslashuvchanlik; mehmondo’sstlik.

Ikkinchi darajali asosiy xususiyatlar: raqobatbardoshlik; ijtimoiy tenglik; diskriminatsiyaga toqatsizlik; ijtimoiy g’amxo’rlik; rehabilitatsion; jozibadorlik; barqarorlik; adolatlilik; innovatsion.

Uchinchi darajali asosiy xususiyatlar: kreativlik; tadbirkorlik; rekreatsion; taklif shakllantiruvchanlik; intiluvchanlik; unikallik; tizimlilik; o’zlashtiruvchanlik.

4. Xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqot ishlarini o’rganish natijasida ITD lari faoliyatiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni quyidagi 8 ta guruhga bo’linishini aniqladik: 1) siyosiy; 2) iqtisodiy; 3) ijtimoiy; 4) ekologik; 5) tabiiy; 6) texnologik; 7) qonunchilik; 8) madaniy.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Britton, S. G. (1982). The political economy of tourism in the third world. *Annals of Tourism Research*, 9 (3), 331–358. doi:10.1016/0160-7383(82)90018-4
2. Gibson, C. (2009). Geographies of tourism: Critical research on capitalism and local livelihoods. *Progress in Human Geography*, 33(4), 527–534
3. Harrison, D. (Ed.) (1992). *Tourism and the Less Developed Countries*. London: Belhaven Press.
4. Jamal, T., & Camargo, B. A. (2014). Sustainable tourism, justice and an ethic of care: Toward the just destination. *Journal of Sustainable Tourism*, 22(1), 11–30.
5. Nyanjom, J.; Boxall, K.; Slaven, J. Towards inclusive tourism? Stakeholder collaboration in the development of accessible tourism. *Tour. Geogr.* 2018, 20, 675–697.
6. Scheyvens R., Biddulph R. Inclusive tourism development // *Tourism Geographies*. – 2018. – T. 20. – №. 4. – С. 589-609.
7. Scheyvens, R. (2011). *Tourism and poverty*. New York, NY: Routledge.
8. Азимова, Шахло. "Многогранность концепции «инклюзивный туризм»." *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil* 2.5 (2024): 409-417.
9. Иванов, В. Д., С. Н. Талызов, and В. Д. Рафикова. "Инклюзивный туризм: проблемы и перспективы его развития." *Colloquium Journal* 6 (2018): 16-19.
10. <https://uz.goodinternet.org/uz/sections/faqs/inklyuziv-sozining-manosi-qaysi-sozdan-olingan/>

<p><b>Б.Шарипов</b></p> <p><b>Концептуальные, теоретические и методологические основы формирования инклюзивных туристических дестинаций</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В данной статье анализируется сегмент потребителей инклюзивных туристических услуг и выделяются их основные группы. Изучив особенности дестинаций инклюзивного туризма, необходимые признаки для того, чтобы дестинация была инклюзивной, были классифицированы на три уровня, определены основные факторы, влияющие на деятельность дестинаций инклюзивного туризма, а также основные принципы формирования инклюзивной дестинации.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> дестинация, инклюзивность, путешествия, туристическая индустрия, субъекты туризма, люди с ограниченными возможностями, спрос, доступность, универсальность, гибкость, управление дестинацией, стратегия, интеграция.</p>	<p><b>B.Sharipov</b></p> <p><b>Conceptual, theoretical and methodological foundations for the development of inclusive tourism destinations</b></p> <p><b>Abstract.</b> This article analyses the consumer segment of inclusive tourism services and identifies its main groups. After examining the characteristics of inclusive tourism destinations, the necessary attributes for a destination to be inclusive have been classified into three levels, the main factors influencing the activities of inclusive tourism destinations have been identified, as well as the main principles of creating an inclusive destination.</p> <p><b>Keywords:</b> destination, inclusiveness, travel, tourism industry, tourism actors, people with disabilities, demand, accessibility, universality, flexibility, destination management, strategy, integration.</p>
--	--

Ulug‘bek Egamberdiyevich Boynazarov – SamISI mustaqil izlanuvchisi

### OILAVIY MEHMON UYLARI UCHUN MAHALLIY VA XALQARO ME‘YORLAR XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Maqolada oilaviy mehmon uylari va ularga qo‘yiladigan asosiy talablar, shu jumladan, sanitariya-gigiena, xavfsizlik, qulayliklar, o‘z faoliyatini davlat reyestrda ro‘yxatdan o‘tkazish, qo‘llaniladigan talablar va xizmatlarning sifatini ta‘minlash masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** oilaviy mehmon uylari, turizm, xususiy uy-joy, sanitariya-gigiena, xavfsizlik, sifatli xizmat, turistik yo‘nalishlar, mahalliy madaniyat.

**Kirish.** O‘zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi va uning iqtisodiyotdagi o‘rni tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, oilaviy mehmon uylari turizm sohasining alohida bir yo‘nalishi bo‘lib, mamlakatimizda mehmonlarni kutib olishning yangi usullarini taqdim etadi. Oilaviy mehmon uylari xususiy uy-joy obyektlarida tashkil etilgan kichik mehmonxonalar bo‘lib, ular mehmonlarga qulay yashash sharoitlari, samimiy muhit va madaniy xizmatlar taklif etadi. Bu turdagi turizmning yuksalishi mamlakat ichidagi turistik joylarga bo‘lgan qiziqishni oshirishga yordam beradi va mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagi masalalarga asoslanib, oilaviy mehmon uylari faoliyatini tashkil etish va ularga talablar qo‘yish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining qarori ishlab chiqildi. Ushbu qaror turizmni rivojlantirishda, mehmonxona xizmatlarining sifatini oshirishda va xavfsizlikni ta‘minlashda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Qaror, xususan, mehmonxona xizmatlari ko‘rsatishning sanitariya-gigiena talablariga mosligini ta‘minlash, mahalliy aholi va turistlarga sifatli xizmatlar taqdim etish maqsadida ishlab chiqilgan.

Mazkur hujjat asosida, oilaviy mehmon uylari o‘z faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish va davlat tomonidan belgilangan normativlarga rioya etish orqali mustahkam o‘rin egallashlari mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlarning o‘rganilganlik darajasi:** Joylashtirish vositalari hamda ularning o‘ziga xos turlari, shakllarini tashkil qilish va rivojlantirishning nazariy-metodologik jihatlari ko‘plab xorijlik olimlar<sup>1</sup>, jumladan: A.Yu.Aleksandrova, N.A.Goncharova, M.A.Jukova, I.V.Zorin, Ye.N.Pavlova, W.Althof, D.Buhalis va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Ushbu

<sup>1</sup> Александрова А. Ю. Международный туризм. Учебное пособие для вузов. - М.: Аспект Пресс, 2001.– 464 с.; Гончарова Н.А. Управление жизненным циклом дестинации // Известия Томского политехнического университета. Т.318, №6,2011 с.53-55; Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе. Учебное пособие. - М.: КНОРУС, 2006. -160 с.; Зорин И.В. Дестинация. М.: ВЛАЦ, 2009. 28 с.; Павлова Е.Н. Развитие регионального профессионального туристского образования на основе туристской дестинации (на примере Карелии). Петрозаводск: КарНЦРАН. 2009. 105 с.; Althof W. Incoming-Tourismus. Munchen. Wien: Oldenbourg Verlag. 2001. 356 p.; Buhalis D. Marketing the competitive destination of the future//Tourism Management 2000.№21(1). P.97-116.

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

20.11.2024 йилда теришга берилди. 11.12.2024 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0134В/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.